


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5140,9 mld. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi 92,4 % ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1484,9 mld. so'mni**, o'sish sur'ati **97,1 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – 28,9 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **28,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5140,9 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 92,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 150,0 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 92,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 118,0 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 48,4 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar–may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 591,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,5 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2,5 martani, gaz kondensati – 131,0 % ni, neft qazib olish – 129,2 % ni, qum – 91,9 % ni va chaqiq tosh – 110,3 ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Tabiiy gaz, mln. kub m.			
427,5		1069,0	2,5 m. ↑
Gaz kondensati, ming t.			
90,1		118,0	131,0 ↑
Neft, ming t.			
8,7		11,2	129,2 ↑
Qum, ming t.			
40,7		37,4	91,9 ↓

2019-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Chaqiq tosh, ming t.			
45,8		50,6	110,3 ↑


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3552,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 69,1 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali – 31,4 %, o'rta – quyi texnologiyali – 3,0 % va quyi texnologiyali – 65,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 78,4 % ni, trikotaj polotnolar – 94,8 ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 113,4 % ni, ip-kalava – 96,8 % ni, plastmassa quvurlar – 115,5 % ni, alkogol ichimliklar – 2,0 martani, kaliy xlorid – 102,2 % ni va polietilen – 103,7 % ni tashkil etdi.

*Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish*

2019-yil yanvar–may oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar–may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Paxta tolasi, t.			
26635,0		20889,0	78,4 
Trikotaj polotnolar, t.			
713,0		676,1	94,8 
Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.			
57481,8		65170,0	113,4 
Ip-kalava, t.			
12079,0		11688,0	96,8 
Plastmass quvurlar, t.			
1964,1		2265,0	115,5 
Alkogol ichimliklar, ming litr			
1032,0		2049,5	2,0 m. 

2019-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar – may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Kaliy xlorid, ming t. K2O			
80,4		82,2	102,2 ↑
Polietilen, ming t.			
53,5		55,4	103,7 ↑

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.




2020-yil yanvar-may oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 964,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 32,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 29,4 % ga oshganligini, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizasiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 79,4 % ga kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

2020-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1484,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 28,9 % ni tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2020-yil yanvar-may oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari – 64,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlari – 35,2 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 3,0 % tashkil etdi.

Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2019-yil



2020-yil



■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari

■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 832,4 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarning sanoatning umumiyligi hajmidagi ulushi, %

2020-yil yanvar-may




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiyligi hajmida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 57,3 %, ishlab chiqarilgan sanoat korxonalari ulushi 42,7 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,4 %), G'uzor tumani (20,0 %), Qarshi shahri (18,4 %), Koson (5,6 %), Muborak (5,5 %) va Qarshi (4,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2020-yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Qamashi va Yakkabog' (2,6 %), Mirishkor (2,5 %), Chiroqchi va Kitob (2,3 %) tumanlariga va Shahrisabz sh. (2,2 %) to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Nishon tumani 1048,1 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 1026,6 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 946,7 mlrd. so`mni va Koson tumani 287,9 mlrd. so`mni tashkil etdi.

***2020-yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***



**2020-yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo`yicha
sanoat ishlab chiqarish indeksi**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora–tadbirlar natijasida Kasbi tumanida (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 120,9 %), Shahrisabz shahrida (113,0 %), Qamashi tumanida (109,5 %), Chiroqchi tumanida (109,3 %), Mirishkor tumanida (102,9 %), Kitob tumanida (102,4 %) va Shahrisabz tumanida (101,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

2020-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`sish sur’ati

	mlrd. so`m	2019-yil yanvar-may oyiga nisbatan o`sish, %
Qashqadaryo viloyati	1484,9	97,1
Qarshi sh.	471,2	94,3
Shahrisabz sh.	102,0	96,7
tumanlar:		
G'uzor	36,3	97,1
Dehqonobod	24,6	98,5
Qamashi	74,8	98,3
Qarshi t.	61,2	100,5
Koson	133,1	84,4
Kitob	86,1	100,4
Mirishkor	35,9	100,9
Muborak	33,5	98,9
Nishon	36,5	96,9
Kasbi	41,4	96,5
Chiroqchi	85,0	97,5
Shahrisabz t.	136,8	102,5
Yakkabog`	126,5	113,7


Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o’sish sur’atda eng yuqori ko`rsatgich Yakkabog` tumanida (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 113,7 % ni), Shahrisabz tumanida (102,5 % ni), Mirishkor tumanida (100,9 % ni), Qarshi tumanida (100,5 % ni) va Kitob tumanida (100,4 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (iste’mol tovarlari hajmida 31,7 %), Koson tumanida (9,0 %), Shahrisabz tumanida (9,2%), Yakkabog` tumanida (8,5 %) va Shahrisabz shahrida (6,9 %) ni tashkil etadi.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili Nishon tumanida (6861,4 ming so'm), G'uzor tumanida (5035,8 ming so'm), Muborak tumanida (3247,0 ming so'm) va Qarshi shahrida (3434,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat 1564,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2020-yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda

Sanoat mahsulotlari



Iste'moltovarlar




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1439,4 mlrd. so`mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,0 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kitob tumanida (95,0 %), Shahrisabz shahri (85,3 %), Chiroqchi tumanida (76,3 %), Yakkabog` tumanida (73,2 %), Mirishkor tumanida (53,5 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nishon tumanida (3,5 %), G'uzor tumanida (3,8 %), Dehqonobod tumanida (11,8 %) va Muborak tumanida (12,1 %) kuzatildi.


2020-yilning yanvar-may oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 3,5 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 705 tasi Qarshi shahrida, 415 tasi Kitob tumanida, 316 tasi Yakkabog` tumanida, 302 tasi Shahrisabz shahrida, 290 tasi Chiroqchi tumanida, 272 tasi Qarshi tumanida, 206 tasi Qamashi tumanida, 196 tasi Shahrisabz tumanida, 194 tasi Koson tumanida, 177 tasi G`uzor tumanida, 126 tasi Nishon tumanida, 116 tasi Kasbi tumanida, 91 tasi Mirishkor tumanida, 80 tasi Muborak tumanida va 75 tasi Dehqonobod tumanida joylashgan.

2020-yil 1-iyun holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 357 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 61 tasi Qarshi shahriga, 38 tasi Chiroqchi tumaniga, 33 tasi Kitob tumaniga, 30 tasi Yakkabog` tumaniga, 27 tasi Shahrisabz shahriga, 21 tadan Qamashi va Shahrisabz tumanlariga, 20 tasi Qarshi tumaniga, 18 tasi Kasbi tumaniga, 16 tadan G`uzor va Koson tumanlariga, 15 tadan Nishon, Muborak va Mirishkor tumanlariga, 11 tasi Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36